

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi
BOSHLANG'ICH SINFLARDA LEKSIKALOGIYA.
BIR MA'NOLI VA KO'P MA'NOLI SO'ZLAR TASNIFI

Abduxalilova Muslima Bekmurodovna

*Qo'qon Universiteti boshlang'ich
ta'lim yo'nalishi 1-kurs 2.23-guruh talabasi*
E-mail: muslimalabdulilova2005@gmail.com

Tel. +998 90 862 10 78

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilshunoslikning asosiy tarmog'i bo'lmish leksikalogiya haqida so'z yuritilgan. So'zlarning inson hayotidagi ro'li va boshlang'ch sinflarda leksikalogiyaning ahamiyati to'g'isida fikrlar berilgan. Bu mavzuni yanada chuqurroq o'rgatish maqsadida foidali metodlar o'ynash tartibi ko'rsatilgan.

Kalit so'z: leksikalogiya, so'z, til, lug'at, monosemiya, polisemiya, ma'no, leksema.

Аннотация. Эта статья о лексикологии, которая является основной отраслью языкоznания. Обсуждается роль слов в жизни человека и значение лексикологии в начальных классах. Для более глубокого изучения этой темы показан порядок воспроизведения полезных приемов.

Ключевые слова: лексикология, слово, язык, словарь, моносемия, многозначность, значение, лексема.

Abstract. This article is about lexicology, which is the main branch of linguistics. The role of words in human life and the importance of lexicology in elementary grades are discussed. In order to teach this topic in more depth, the order of playing useful methods is shown.

Key word: lexicology, word, language, dictionary, monosemy, polysemy, meaning, lexeme.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Ma'lumki, so'zlovchi tilning lug'at tarkibidan maqsadga muvofiq tarzda foydalanadi. Bu leksikalogiyaning uslubiyat bilan o'zaro bog'liq ekanini bildiradi. Lug'at tarkibi shu tilde so'zlashuvchi xalqlarning moddiy va ma'naviy madaniyat tarixi bilan bog'liq. Shunung uchun leksikologiya tarix, adabiyot, falsafa kabi ijtimoiy fanlar bilan ham yaqin aloqada hisoblanadi. Yer yuzida yashovchi dunyo xalqlari xilma – xil tillarda gaplashishadi. Kurrai zaminimizda hammasi bo'lib taxminan 5621 ta til va sheva mavjud bo'lib, hozirgacha ulardan 500 tasigina o'rganilgan xolos¹. Istiqlol yillarida xalqimizning o'z yurti, tili, madaniyati, qadriyatlari tarixini bilishga, o'zligini anglashga e'tibor qaratildi. Maslan joriy yilda maktabgacha, umumiyligi o'rta va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlarini malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash maqsadida 2024-yil 1-yanvardan boshlab umumiyligi o'rta ta'lim muassasalarining pedagogik kasblariga birinchi marta ishga qabul qilinayotgan talabgorlarni kasbiy sertifikatlash tizimi joriy etiladi. Bunda: 2023/2024 o'quv yilidan boshlab pedagogik kasblarga birinchi marta ishga qabul qilinadigan oliy ma'lumotli talabgorlar stajor-o'qituvchi sifatida faoliyat yuritadi va ular ishga qabul qilingan vaqtidan boshlab bir yil muddat davomida kasbiy sertifikatga ega bo'lishi talab etiladi. Stajor-o'qituvchilarga ular kasbiy sertifikat olguniga qadar oliy ma'lumotli (toifasiz) o'qituvchining bazaviy tarif stavkasi qo'llaniladi. 2024-yil 1-yanvardan boshlab davlat maktabgacha, umumiyligi o'rta va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlariga malaka toifasini berishning yangi tartibi joriy qilinadi². Kushkarbekova Marjan Usenovna³ o'z maqolasida leksikologiya tilshunoslikning leksikografiya, frazeologiya, semasiologiya, yok semantika, etimologiya, lug'at tarkibi, stilistika hamda so'z yasalishi haqidagi ta'limot kabi sohalarini chuqurruq o'rgangan. Pirmuhammadova va Hoshimovalarning ham maqolasida aynan shu atamalarga izohini ko'rish mumkin. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini uchun tushunarli hamda hayotiy qilib yozilgan. O'quvchilariga mavzuni yanada tushunarliroq bo'lishi uchun "Eslab qol" nomli o'yindan foydalanamiz. Bu o'yinda o'quvchilariga matin

¹ М. Бобоҷонов. Жаҳон тиллари ҳакида энг, энг, энглар. 27.10.2012.

² Lex.uz malumoti

³ Navoiy davlat pedagogika instituti Chet tillar fakulteti katta o'qituvchisi

www.tadqiqotlar.uz

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

o‘ib beriladi, ular matin ichidan ma’nodosh va zid ma‘nosi bor bo‘lgan so‘zlarni topib daftarlariga yozishadi va shu so‘zlar qatnashgan gap tuzishadi. Huddi shu o‘yinni yanada qiziqarli bo‘lishi uchun o‘quvchilarini guruhlarga bo‘lib qaysi guruh tez va ko‘p so‘z topsa o‘sha guruh o‘yin g‘olibiga aylanadi. Bu o‘yin orqali o‘quvchilar keng fikr yuritadi, shu mavzuga doir ma’nodosh va zid ma‘noli so‘zlarni o‘rganib, sinonim va antonym so‘zlarni farqini ajratib olishadi. Chunki ko‘pgina boshlang‘ch sinf o‘quvchilarida ma’nodoshdan zid ma‘noli so‘zlarni farqini ajratib olishga qiynalishadi. Ushbu mavzudagi sinonim va antonym qo‘srimchalarni yodda saqlash hamda ahamiyatini tushunish maqsadida "Sirli quticha" nomli o‘yin tashkillash mumkin. Bu o‘yinda sirli quticha ichida turli xildagi sinonim va antonym qo‘srimchalar bo‘ladi. O‘quvchilaridan biri istaganini olib, shu qo‘srimcha qatnashgan so‘z aytadi. Albatta so‘zlar sinonim va antonym bo‘lib qoladi, ushbu so‘zlar ishtirokida gap tuzib beradi. O‘quvchilar gap ichidagi ichki ma‘noni yani o‘z ma’nosini emas gap ichidagi ma’nosini tushuntirish madsadida "Stakan" nomli o‘yindan foydalanamiz. Bu o‘yinni o‘tkazish uchun to‘rtta o‘quvchi kerak bo‘ladi. Stakan birida ibora ikkinchisida esa iboraning sematik ma’nosni yozilgan bo‘ladi. O‘quvchilar iboraning ma’nosini tushungan holda sematik ma’nosni yozilgan stakanni ibora yozilgan stakanga kirgizadi.

Leksikalogiya so‘zi yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib, “so‘z haqidagi ta‘limot” degan ma‘noni anglatadi. Leksikalogiya so‘z va uning ma‘nolarini o‘rganadigan bo‘lim hisoblanadi. Tildagi barcha so‘zlar yeg‘indisi shu tilning lug‘at tarkibi yoki so‘z boyligi deyiladi. Qaysi tilda sinonmlar ko‘p bolsa, u holda bu til boy til hisoblanadi. Agarda tilda omonimlar ko‘p bo‘lsa, unda bu til kambag‘al til sanalad. Tilning lug‘at tarkibida sinonimlarning ko‘pligi so‘zlarni emotsionalligini kuchaytiradi va ta‘sirchanligini oshiradi. Sinonimlardan ko‘pincha badiiy adabiyotlarda qo’llaniladi. Leksikalogiya o‘rganish ob’ektining hajmiga ko‘ra ikki turga bo‘linadi. Ular umumiy leksikalogiya va xususiy leksikalogiya hisoblanadi. Umumiy leksikalogiya butun dunyodagi barcha tillarning lug‘at tarkibini o‘rganadi, xususiy leksikalogiya esa ma'lum bir tilning lug‘at tarkibini o‘rganadi. Ma‘lum ma’no bilan bog’langan va marfologik

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

shakllangan tovush yoki tovushlar ketma-ketligidan tashkil topgan birlik so'z hisoblanadi. Biroq har qanday tovushlar ketma ketligidan tashkil topgan birlik so'z sanalmaydi, so'z bo'lishi uchun malum ma'noga ega bo'lishi kerak. Masalan pal, so, g'ul dar birliklari so'z emas chunki ular ma'no anglatmaydi. Har bir so'zda ikki xi ma'no bo'ladi. Ular lug'aviy (atash, leksik) ma'no va gramatik ma'no hisoblanadi. Atash ma'no so'zlarning borliqdagi qanday narsa-hodisalar, belgi-xususiyatlar, harakat holat, son sanog'ini bildirishi tushiniladi. Masalan daftар so'zining atash manosi deyilganda uning varoqlarda tashkil topgan, yoziladigan o'quv quroli ekanligi tushiniladi. Faqat mustaqil so'zlargina atash ma'nosiga ega ammo olmosh so'z turkumi bundan mustasno. Ular atash ma'nosiga ega bo'lган so'zga ishora qiladi. Gramatik ma'no so'zning qaysi so'z turkumiga mansubligi va uning qanday qo'shimchalardan tashkil topganligi uning gramatik ma'nosini deyiladi. Masalan yugurmoq so'zining gramatik ma'nosini uning fel so'z turkumida ekanligi va bosh kelishikda, birlikda ekanligini ifodalaydi. Har qanday so'zda atash ma'nosini bo'lmasligi mumkin, lekin gramatik mano har qanday so'zda bo'ladi. Masalan lekin, uchun, ammo, sari, huddi, atiga, hatto, aslo, -a, -chi, ekan, agar, chunki, xuddi, hamda, orqali, kabi bularning barchasi yordamchi so'z turkumiga mansub, gramatik ma'no ifodalaydi. Ammo atash manisiga ega emas. Tahlil jarayonida gap tarkibidan so'zlarni bildiruvchi, faqat bitta ma'noga ega bo'lган so'zlar choynak, payola, shefer, ruchka, kompyuter, lizing, randa, baxor, partakabi so'zları kabi. Bir ma'noli so'zlar tarkibiga ilmiy atamalar, kasb-hunarga oid atamalar va yangi paydo bo'lган so'zlar yani neologizmlar ham kiradi. Biroq vaqt o'tishi bilan yangi so'zlar ham ko'p manoli so'zga aylanib boradi. Ko'p ma'noli so'z yoki polisemija deb ham yuritiladi. Bunda gap tashqarisida bir ajratamiz. So'zlar esa leksema va grammatic qo'shimchalarga bo'linadi. Tilning lug'aviy (leksik) ma'no bildiruvchi birligi leksema sanaladi. Lug'atlarda bosh so'z sifatida leksemalar beriladi. Ma'lum ma'no bilan bog'langan va marfologik shakllangan tovush yoki tovushlar ketma-ketligidan tashkil topgan morfologik birlik so'z sanaladi. Leksema deb gramatik ma'nosiz faqat leksik ma'no bildiruvchi leksikologik birlikga aytildi. Tilning lug'aviy ma'no bildiruvchi

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

gramatik qo'shimchalarsiz qism, lug'atlarda bosh so'z sifatida beriladi. Tilimizdagi so'zlarning juda katta qismi ko'p ma'nolidir, chunki kishilar o'zining kundalik hayotida yangi paydo bo'lgan tushunchalarning har biri uchun alohida-alohida so'zlar qo'llayveradigan bo'lsa, so'zlarning soni o'ta ko'payib ketib, ularni xotirada saqlash mumkin bo'lmay qolardi. Natijada tildan foydalanish ham qiyinlashib, u sekin-asta yaroqsiz holga kelib qolgan bo'lardi. Bir ma'noli so'z yoki monosemiya deb ham yuritiladi. Bunday so'zlar gap ichida ham gap tashqarisida ham bir ma'noni ma'noni gap ichida boshqa ma'noni bildiruvchi so'zlar. Ulardan achchiq nutqdan tashqarida achchiq qalampir lekin, gap ichida achchiq hayot shaklida keladi. Ko'p ma'noli so'zda o'z ma'no va ko'chma ma'no bo'ladi. O'z ma'no so'zning gap tashqarisida anglatgan ma'nosi, so'zni eshitganimizda hayolimizga kelgan birichi ma'no hisoblanadi. Misol uchun ko'z-inson ko'rish azosi, burun-nafas olish azosi, sho'r-ovqat. Ko'chma ma'no so'zning boshqa so'zlar bilan gap ichida anglashadigan ma'nosini bildiradi. Masalan ko'z-derazaning ko'zi, burun-dengiz burni, sho'r-sho'r peshona. Omonim so'zlar bir qarashda ko'p ma'noli so'zlarga o'xshab ketadi, ammo ularni farqlash kerak. Ko'p ma'noli so'zlar bir so'zni o'z va ko'chma ma'noda qo'llashdan hosil bo'ladi: burun (yuz qismi) – burun (choynakning burni). Omonimlarda turlicha ma'nolar nazarda tutiladi: burun (yuz qismi) –burun (avval) Yengil so'zining o'z manosi yengil so'mka (haqiqatdan ham so'mka yengil bo'lishi mumkin), ko'chma ma'nosi yengil hayot (hayotni hech kim tortib ko'rмаган, uni vazni yo'q, lekin oson hayotni o'xshashlik asosida yengilga qiyoslayapti) ko'p ma'noli so'zning ma'nolari qanchalik ko'p bo'lsa ham u bir so'z hisoblanadi va ma'nolari hamisha bir biri bilan bog'liq va shakli yoki belgisi o'xshash bo'ladi. Inson ko'zi o'z ma'no uzukning ko'zi (shakily o'xshashlik), derazaning ko'zi (vazifaviy bir xillik), daraxtning ko'zi (shakily o'xshashlik). So'zlarning o'z yoki ko'chma ma'noda ishlatilayotgani matn ichida bilinadi. Ko'p ma'noli va ma'nodosh so'zlardan foydalanish matnning ta'sirchanligini, ifodaviyligini oshirish uchun xizmat qiladi. Omonim so'zlar bilan ko'p ma'noli so'zlarni farqlash lozim.

1. Omonim bir shaklga ega bo'lgan bir necha so'z, ko'p ma'noli so'z bir

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

necha ko'rinishga ega bo'lgan bir so'z

2.Omonimlar orasida ma'noviy bog'liqlik bo'lmaydi. Masalan yuz inson yuzi, yuz yuz so'm kabi, ko'p ma'noli so'zning ma'nolari qancha ko'p bo'lsa ham ma'noviy bog'liklik mavjud. Masalan odamning ko'zi o'z ma'no, daraxtning ko'zi shakliy o'xshashlik, derazaning ko'zi vazifaviy o'xshashlik.

3.Omonimlarda o'z va ko'chma ma'no bo'lmaydi. Gapda faqat bitta ma'nosi qo'llanadi, ko'p ma'noli so'zda o'z va ko'chma ma'no mavjud. Ulardan inson qulog'i-o'z ma'no, qozon qulog'I ko'chma ma'no qo'llangan.

4. Omonimlar bir so'z turkumi doirasida ham, xar xil so'z turkumi doirasida ham yuzaga kelishi mumkin. Misol uchun insonning yuzi ot so'zturkumi, yuz so'm son so'z turkumi, begona o'tlarni yulib tashla ot so'zturkumida, o'tni alangasini qara, tezroq ko'priordan o't hozir uziladi, ko'p ma'noli so'zlarda faqat bir so'z turkumi doirasida yuzaga keladi. Masalan ko'yak yoqasi ot so'z turkumida, daryo yoqasi ham ot so'z turkumida.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki leksikalogiya juda katta va keng qamrovli bo'lim hisoblanadi. Insonlarning muloqot jarayonini leksikologiyasiz tasavvur qilish qiyin. Yuqorida ko'rsatilgan metodlardan boshlang'ich sinf o'quvchilarida qo'llash fanni o'zlashtirishda yaxshi yordam beradi deb o'ylayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi "Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-14-son Farmoni

2. Musajon Bobojonov. Jahon tillari haqida 27.10.2012. <https://m.ok.ru>

3. Javohir Yo'ldoshev qo'llanmasi 1-2 sahifalari

4. lex.uz internet sayti ma'lumoti